



**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI "O'QISH" FANI ORQALI
O'QUVCHILARNI IJTIMOIYLASHTIRISHGA TAYYORLASHNING
PEDAGOGIK ASOSLARI**

Zulfiyaxon To'ychiyeva Abdulxamid qizi

O'zbekiston, Qo'qon DU tayanch doktoranti (PhD)

zulfiyatoychiyeva40@gmail.com

UDK: 0009-0004-7796-2328

ORCID: 0009-0004-7796-2328

tel: 94-552-50-69

Rezyume. *"O'qish" fani boshlanich sinf o'quvchilarini muvaffaqiyatli tarzda ijtimoiylashtirishda katta imkoniyatga ega. Fanni o'qitishda, eng avvalo, turli mavzulardagi matnlar orqali o'quvchilar axloqiy me'yor va qoidalar bilan tanishtiriladi. Matnlar orqali an'ana, urf-odat, shuningdek, jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq qoidalari mohiyatini yetarlicha anglash o'quvchilarni jamiyatga samarali moslashtiradi. "O'qish" darslarini tashkil qilishda boshlang'ich sinf o'quvchilarini samarali ijtimoiylashtirish bir necha yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Shu sababli belgilangan yo'nalishlarda pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish boshlang'ich sinf o'qituvchilari oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Maqolada "O'qish" darslarida o'quvchilarini samarali ijtimoiylashtirishning asosiy yo'nalishlari va ular bo'yicha tashkil qilinadigan pedagogik faoliyat mazmuni yoritilgan.*

Tayanch tushunchalar: *"O'qish" fani, boshlang'ich sinf o'quvchilari, ijtimoiylashuv, "O'qish" darslarida o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning asosiy yo'nalishlari, pedagogik faoliyat, pedagogik faoliyat mazmuni.*

Резюме. *Предмет "Чтение" обладает огромным потенциалом для успешной социализации учащихся начальной школы. При преподавании предмета, прежде всего, учащиеся знакомятся с моральными нормами и правилами посредством текстов на различные темы. Глубокое понимание сущности традиций, обычаев, а также принятых в обществе нравственных норм, формируемое на основе текстов, способствует эффективной адаптации учащихся к социальной среде. При организации уроков "Чтения" эффективная социализация учащихся начальной школы осуществляется по нескольким направлениям. В этой связи эффективная организация педагогической деятельности по данным направлениям является одной из важнейших задач учителей начальных классов. В статье рассматриваются основные направления эффективной социализации учащихся на уроках "Чтения", а также содержание педагогической деятельности, организуемой в рамках данного процесса.*



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Ключевые слова: предмет “Чтение”, учащиеся начальной школы, социализация, основные направления социализации на уроках “Чтения”, педагогическая деятельность, содержание педагогической деятельности.

Abstract. *The subject “Reading” offers enormous potential for the successful socialization of elementary school students. When teaching this subject, students are primarily introduced to moral norms and rules through texts on various topics. A deep understanding of the essence of traditions, customs, and accepted social moral standards, developed through these texts, facilitates students' effective adaptation to the social environment. When organizing “Reading” lessons, the effective socialization of elementary school students is achieved through several approaches. Therefore, the effective organization of pedagogical activities in these areas is one of the most important tasks for elementary school teachers. This article examines the key approaches to effective student socialization in “Reading” lessons, as well as the content of pedagogical activities organized within this process.*

Key words: *The subject “Reading”, elementary school students, socialization, key approaches to socialization in “Reading” lessons, pedagogical activities, content of pedagogical activities.*

Boshlang'ich sinflarning o'quv jadvaliga “O'qish” darsining kiritilishi o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, ijtimoiy ko'nikma, malakalarga hamda ulargagina xos bo'lgan “hayotiy” tajribaga egalik kabi jihatlar inobatga olingan holda kiritilgan. O'quv fanining boshlang'ich ta'lim tizimining muhim tarkibiy elementi sifatidagi o'rni va roli uning didaktik imkoniyatlari bilan belgilanadi. Zero, bu o'quv fani o'quvchilarda o'qish ko'nikma, malakalarini shakllantirish bilan birga ularning ma'naviy-axloqiy sifatlarini, dunyoqarashlarini, ijtimoiy munosabatlar borasidagi hayotiy tajribalarini boyitishga xizmat qiladi.

“O'qish” darslarida kichik maktab yoshidagi bolalarda jamiyatdagi, jamoat joylari (transport, sog'liqni saqlash tashkilotlari (klinika va poliklinika, kasalxonalar, qayta tiklash markazlari), bozor, park, hiyobon, madaniyat muassasalari (teatr, kino, konsert va tomoshalar o'tkaziladigan zal, maydonlar), dam olish va hordiq chiqarish uchun mo'ljallangan maskanlar va boshqa joylarda o'zini tuta bilish, belgilangan tartib-qoidalarga bo'ysunish, atrofdagilarga hurmat bilan munosabatda bo'lishga odatlantirib boriladi.

Tegishli fan bo'yicha turkum mavzular yordamida o'quvchilar oilaning har bir shaxs uchun qadriyat ekanini anglaydi, jamoaviylik, do'stlik, hamkorlikka asoslanuvchi munosabatlarning shaxsning fuqaro sifatida kamol topishidagina emas, balki jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda ham o'ziga xos ahamiyat kasb etishini tushunib yetadi.


“O'qish” darslarida rolli o'yinlar, guruhli loyihaviy ishlar, sahna ko'rinishlaridan foydalanish har bir o'quvchini jamoada ishlashga, jamoaviy topshiriqlarini bajarishda o'z



tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga o'rgatadi. Agarda o'quvchilar ta'lim jarayonida qahramonlarning ruhiy holatini tushuna olsa, qiyin vaziyatlarda ularga hamdardlik bildirsa, demakki, ularda boshqalarga nisbatan ehtirom va hamdardlik tuyg'ulari mavjud.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiylashtirish bir nechta yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Tegishli yosh davri bolalariga xos xususiyatlarni, "O'qish" darslarining pedagogik imkoniyatini o'rganish, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini pedagogik nuqtayi nazardan kuzatish asosida ularni ijtimoiylashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishiga ishonch hosil qilindi:

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarini
ijtimoiylashtirishning asosiy yo'nalishlari**



Ko'rsatilgan yo'nalishlarning har birida pedagogik faoliyatni olib borishda muayyan jihatlarga e'tibor qaratish zarur. Xususan:

1. Ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash. Bu jarayonda, eng avvalo, darslarda "Qanday xulq yaxshi, qanday xulq yomon?" turkumidagi matnlarni o'qish, ular asosida suhbatlarni tashkil qilish, yaxshi va yomon sanaladigan xulqqa egalikning video roliklar, sahna ko'rinishlari, rolli o'yinlar orqali namoyish qilishga e'tiborni qaratish talab etiladi. Ular asosida o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar va ularga ega bo'lishning ahamiyati to'g'risidagi tushunchalar shakllanadi.

Kichik maktab yoshi o'quvchilari ijtimoiy va tabiiy borliqni ko'p holatlarda vizual (ko'z bilan ko'rish) orqali obrazli qabul qiladi. Shu sababli o'quvchilarni ijtimoiylashtirishda ota-onalar, oila a'zolari, o'qituvchilar, umuman olganda, jarayonga bevosita ta'sir etuvchi subyektlarning namuna bo'la olishlari muhim.

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lishlari ularni milliy hamda umuminsoniy axloqiy qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirish, qadriyatlar mazmunida aks etgan g'oyalarni ularning ongida aks etishiga erishish kutilgan natijaga erishish uchun imkoniyat yaratadi.

"O'qish" darslarida bosqichma-bosqich o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ularning izohi (halollik (rostgo'y bo'lish, aldamaslik); adolatlilik (haqiqatga asoslanib ish ko'rish, tenglikni saqlash); hurmat (kattalarga ehtirom, kichiklarga izzat) ko'rsatish; mehr-shafqat (boshqalarga g'amxo'rlik qilish, rahmdillik); mas'uliyatlilik (zimmasidagi burch va vazifalarni vijdonan bajarish); sabr-toqat (qiyinchiliklarga chidamli bo'lish);



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



kamtarlik (manmanlikdan yiroq bo'lish, oddiylik); vatanparvarlik (yurti sevish va qadrlash); intizomlilik (belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilish); do'stlik (do'stlarga sadoqatli bo'lish); kechirimlilik (boshqalarning xatosini kechira bilish); tozalik va ozodalik (shaxsiy buyumlari, uy-joyiga va atrof-muhitga e'tiborli bo'lish), bu kabi fazilatlarga ega bo'lishning shaxs va jamiyat uchun ahamiyati bilan tanishtirib borish o'quvchilarda sekin-asta axloqiy e'tiqodning shakllanishi uchun zarur sharoitni yuzaga keltiradi.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ota-onalar (maktabning oila) bilan o'zaro hamkorlikka erishishlari muhim. Ma'naviy-axloqiy tarbiya borasida maktab va oila o'rtasida uzviy aloqa bo'lishi shart. Zero, ta'lim jarayonida ilgari surilayotgan ma'naviy-axloqiy g'oyalar oilada olib borilayotgan axloqiy tarbiya mazmuniga muvofiq bo'lgandagina o'quvchilarda ijobiy xulq-atvor shakllanadi.

2. Ijtimoiy faol bo'lishiga erishish. Manbalarda "ijtimoiy faollik" tushunchasi "kishi qaysi kasbning egasi bo'lishidan, qanday lavozimda ishlashidan qat'iy nazar, uning jamiyat rivojiga hissa qo'shishga, zamondan ortda qolmaslikka bo'lgan harakati" [5, 255-b.]; "shaxs yoki guruhning ijtimoiy jarayonlarga ta'sir qilish va turmush sharoitini yaxshilash maqsadida tashkil qilinayotgan ijtimoiy hayotdagi ishtiroki" [4]; subyektning "ongli harakatga asoslangan, jamiyat taraqqiyotiga yo'naltirilgan ijtimoiy faol ishtiroki" [8, 112-b.]; "shaxsiy sifatleri darajasining asosiy ifodasi, yuksak darajadagi ehtiyojlarini qondirish usuli, sifat ko'rsatkichi" [8, 255-b.]; "jamiyatda faol ishtirok etishi, uning muammolariga befarq bo'lmasligi, ijtimoiy munosabatlarda ongli ravishda qatnashish" [1, 38-b.]; shaxsning jamiyat hayotida ongli ravishda ishtirok etishi, ijtimoiy muhit, shu jumladan, atrofidagi shaxslar bilan faol munosabatda bo'lishi, umumjamo'a manfaati yo'lida muayyan harakatlarni amalga oshirishga intilishi; bu ishtirok va intilishning ma'lum darajasi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkin: ijtimoiy faollik negizida shaxsning jamiyat, quyi bo'g'im sifatida mahalla yoki ishlab chiqarish hamda o'quv jamoalarning ijtimoiy hayotida bevosita ishtirok etishi, muayyan muammolarni hal qilishda tashabbus va tashkiliy masalalarni hal qilishda jonbozlik ko'rsatishi, barqaror hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishi (adolatsizlikka qarshi kurashish), ijtimoiy muammolarning muhokamalarida ishtirok etish, milliy miqyosda tashkil qilinayotgan shanbalik, tadbir, aksiya hamda loyihalarda qatnashish, mas'uliyatning o'z zimmasiga olishi kabi sifatlar hamda ularning muayyan darajalarda namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. "Shaxsning bunday darajalarda o'rganilishi metodologik ahamiyat kasb etadi" [7, - 149-150-b.].

Ijtimoiy faollik negizida kirishuvchanlik (subyektlar bilan oson til topisha olish); tashabbuskorlik (yangi g'oya va takliflarni ilgari surish); tashkilotchilik (jamoaviy ishlarni tashkil qilish, ularni tashkiliy, boshqaruv jihatidan qo'llash); mas'uliyatlilik (o'z



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



zimmasidagi vazifalarini sidqidildan bajarish); jamoa hayoti va ishida faol ishtirok (guruh ishlarida qatnashish); befarq bo'lmashlik (ijtimoiy voqea, hodisalarga faol munosabat bildirish; ularni yoqlash yoki inkor qilish).

Katta yoshli kishilardan farqli tabiiy ravishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faolligi bu turdagi faollikning dastlabki bosqichi bo'lib, nisbatan oddiy xatti-harakatlar orqali namoyon bo'ladi. Chunonchi, darslarda savol-javoblar jarayonida ishtirok etish; o'qituvchi hamda tengdoshlari bilan izchil muloqotni tashkil qilish; o'quv topshiriqlarini jamoaviy – kichik guruhlarda bajarish; darsdan tashqari sharoitda sinf ishlari (navbatchilik; qo'shimcha mashg'ulotlar davrda o'quv-bilish faoliyatini olib borish; turli sport musobaqalari, intellektual bellashuvlar, tanlovlar, to'garaklar faoliyati, madaniy tadbirlar, sinf yoki maktablarda hasharlarni, "Tozalik kun"larini uyushtirish; sinf xonasining tozaligi va sanitariya holati uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish kabilar)ni tashkil etishda tashabbuskor va tashkilotchi bo'lish); zarur vaziyatlarda tengdoshlari yoki atrofdagilarga yordam berish; tabiatni asrash yo'lida amaliy harakat qilish ("Tabiat burchagi"da jonivorlarni parvarishlash; maktab geografik maydonlaridagi ko'chat, daraxt, o'simlik hamda gullarni parvarishlash); o'yinlar

va jamoaviy muhokamalar jarayonida faol ishtirok etish.

Ijtimoiy faol bo'lishi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari ularning ijtimoiy munosabatlarga samarali ravishda moslashish uchun xizmat qiladigan ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi hamda yetuk fuqaro sifatida kamolotga erishadi. Masalan, muloqot, jamoada ishlash, jamoada ijobiy ijtimoiy muhitni yaratish; sinfda do'stona, sog'lom, rag'batlantiruvchi muhitning yaratilishiga o'z hissasini qo'shish; tengdoshlarining tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash; munosabatlar jarayonida milliy axloqiy qadriyatlarga tayanish va hokazolar.

Shu bois "O'qish" darslarida jamiyat hamda o'quvchilar jamoasining ijtimoiy faoliyatiga oid mavzular bilan o'quvchilarni yaqindan tanishtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Irodaviy sifatlarni tarbiyalash. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarni tarbiyalash ularning o'qishdagi muvaffaqiyati, xulq-atvori va kelajakdagi shaxsiy rivoji uchun asos bo'lib xizmat qiladi. "O'qish" darslarida rang-barang mavzulardagi o'quv materiallari yordamida kichik maktab yoshidagi bolalarda quyidagi irodaviy sifatlarni muvaffaqiyatli tarbiyalash imkoniyati mavjud: o'z oldiga maqsad qo'yish; qo'yilgan maqsadga erishish uchun intilish; ta'lim olishda qiyinchiliklar yuzaga kelgan ularga nisbatan sabrli bo'lish (topshiriqlarni oxirigacha bajarishga o'rganish); qat'iyatlilik (ma'lum xatti-harakatni amalga oshirishda ikkilanmay qaror qabul qilish va uni amalga oshirishda barqarorlik ko'rsatish); kundalik va o'quv-bilish faoliyatida o'zini o'zi nazorat qilish; intizomli bo'lish; mas'uliyatlilik (zimmasidagi vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarishga intilish, burchini to'la his qilish); tashabbuskorlik, mustaqillik (o'zini o'zi boshqara olish, qarorlarni mustaqil qabul qilish); fikrini dadil bayon qilish.



4. Ruhan barqaror bo'lishiga erishish. Zamonaviy sharoitda psixologiya va pedagogika fanlari doirasida shaxsning ruhiy barqarorligi muammosini o'rganish global o'zgarishlar, "ijtimoiy hamda iqtisodiy keskinlikning kuchayishi, subyekt tomonidan qarorlarni qabul qilish samaradorligiga bo'lgan talablarning ortishi bilan bog'liq holda tobora dolzarblik kasb etmoqda ... Shaxsning psixologik barqarorligi muammosini ilmiy hodisa sifatida nazariy tushunishga ehtiyoj ortib

bormoqda" [2, – c. 362]. Bu o'rinda muallif "turg'unlik" deganda shaxsning psixologik, intellektual va ijtimoiy jihatdan rivojlanmay qolganligini emas, aksincha, uning ruhiy, aqliy hamda ijtimoiy nuqtayi nazardan kamolga yetganligini, u qadar ahamiyatli bo'lmagan hodisalarni oddiy voqelik sifatida qabul qilishi, ortiq darajada ta'sirlanmasligi, jarayonga mulohazakorlik bilan yondashuvini, umumiy qilib aytganda, ma'lum darajada hayotiy tajribaga egaligini nazarda tutadi.

Garchi psixologik, pedagogik adabiyotlarga "ruhiy barqarorlik" (ingl. "mental toughness") nazariy jihatdan turlicha talqin qilinsada, biroq, mavjud yondashuvlar shaxs ruhiy barqarorligini muayyan tomonidan o'rganilganini ko'rsatadi. Xususan, ruhiy barqarorlik – shaxsning "ruhiy tushkunlikdagi holati, uni keltirib chiqargan vaziyatlarni yengib o'tishga imkon beradigan psixologik tavsifi (tuzilishi)" [3, – c. 49.]; "kelgusida sport, ta'lim va kasbiy faoliyatda erishadigan muvaffaqiyatlarining taxmin qilinishini kafolatlaydigan unga xos individual chidamlilik va o'ziga bo'lgan ishonchining o'lchovi"; qiyinchiliklar yuzaga kelgan, muvaffaqiyatsizliklar ro'y bergan vaziyatlarda ichki xotirjamlikni saqlab qolgan holda xatolarga yo'l qo'ymagan, ortga chekinmagan holda jismoniy va ruhiy bosim (zo'riqish)larga bardoshli bo'lish qobiliyati" [6].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ruhiy barqarorlikni qaror toptirish ularning sog'lom rivojlanishi, o'qishga qiziqishi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashning muhim omillaridan biri sanaladi. Ushbu omilning inobatga olinishi ta'lim, shu jumladan, "O'qish" darslarida boshlag'ich sinf o'qituvchilari tomonidan sinf va oilada sog'lom (do'stona, qo'llab-quvvatlovchi) psixologik muhit yaratish; o'quvchining shaxsini hurmat qilish; hissiy qo'llab-quvvatlash; yutuqlardan quvonishga, intizomli bo'lishiga hamda kun tartibiga rioya qilishga o'rgatish; ularni qiyin vaziyat (muvaffaqiyatsizlik)larga ruhan tayyorlashga xizmat qiladigan pedagogik shart-sharoitlarning yaratilishi e'tibor qaratilishi talab qilinadi. Chunki o'quvchilarda ruhiy barqarorlikni qaror toptirish orqali ijtimoiy munosabatlarga to'la, samarali moslasha olgan shaxslar bo'lib yetishishlarini ta'minlaydi.

Shuni ham yodda tutish kerakki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchini qo'rqitish, tahqirlash va qattiq tanqid qilish mumkin emas. Aksincha, uni qadrlash, fikrini tinglash, xohish-istaklaridan xabardor bo'lish; o'zini muhim shaxs sifatida his qilishi uchun sharoitni yaratish; his-tuyg'ularini anglay olish; quvonch va tashvishlaridan xabardor bo'lish; tushkun kayfiyatda bo'lganida ruhan yordam berish; uning hatto eng kichik bo'lsa ham yutuqlarini ham e'tirof etish, maqtash orqali o'ziga bo'lgan ishonchni



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



oshirish; qiyin vaziyatlarda o'zini o'zi boshqarishga, sabrli, toqatli, jismonan bo'lishga o'rgatish; shaxsga xos mehnat faoliyatining turi sifatida o'qish va dam olish o'rtasida mutanosiblikni ta'minlash boshlang'ich sinf o'quvchilarining ruhiy barqarorlikka ega bo'lishlariga yordam beradi. O'qituvchilar harakatli mashg'ulotlar, o'yinlar, shu bilan birga mazmunli, ko'ngillik dam olish bolaning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir qilishini ham unutmashliklari lozim.

Kun tartibining to'g'ri tashkil etilishi fiziologik jihatdan ham sog'lom bo'lishiga yordam beradi, unda huda-behudaga xavotirlanish hissini bartaraf qiladi. Zero, ruhiy barqarorlikka egalik o'quvchini faol, ishonchli, ta'lim olishga ishtiyoqli bo'lishiga yordam beradi.

5. Hissiyotni tarbiyalash. Lug'aviy mazmuniga ko'ra "hissiyot" tushunchasi "shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlardan kelib chiqadigan kechinmalari" [10]; "o'zini tuta bilish, hissiy jihatdan yetuklik, xotirjamlik, qiziqishlarning barqarorligi, harakatchanlik, qat'iyatlilik, haqiqatparvarlik, arziyas narsalardan ta'sirlanmaslik kabi sifatlar majmui" [9] ma'nolarini anglatadi.

Shaxsning, shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ruhiy, jismoniy-irodaviy rivojlanishi negizida ham hissiyot yotadi. Hissiyotning barqaror rivojlanishi esa kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni samarali ijtimoiylashtirishning muhim talablaridan, shu bilan birga ular da atrofdagilar bilan to'g'ri munosabat o'rnatish, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri sanaladi.

Tegishli yosh davridagi o'quvchilarning hissiyotini tarbiyalashda o'qituvchilar hamda ota-onalardan quyidagilarga e'tibor qaratish talab qilinadi: maktabda, sinfda va oilada ijobiy emotsional muhitni yaratish; bolalarni o'z his-tuyg'ularini ifodalashga o'rgatish; atrofdagilarga nisbatan empatik (boshqalarning hissiyotini tushunish, qiyin vaziyatlarda ularga hamdardlik bildirishni ifodalovchi) munosabatni rivojlantirish; o'qituvchi, ota-onalar yoki bolaning tarbiyasi uchun mas'ul shaxslarning ijtimoiy jarayonlarda shaxsiy namuna ko'rsatishlariga erishish; bolalarning ijobiy xatti-harakatlarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash; salbiy hissiyot (qo'rqish, g'azablanish, nafratlanish, xafa bo'lish, hasad, umidsizlik, nolish, ko'ngli to'lmaslik, bezovtalik, ishonchsizlik, yoqtirmaslik, aybdorlik, alamzadalik, o'zini past baholash, gumondorlik, adovat, noo'rin uyalaverish, tajovuzkorlik, jazavaga tushish, qaysarlik, befarqlik, loqaydlik kabi)larga berilmasli; qiyin vaziyatlarda o'zini tuta bilishga, tinchlanishga o'rgatish va hokazolar.

Salbiy hissiyotlarga egalik har bir shaxsda kuzatiladi. Salbiy hissiyotning ayrim turi, masalan, qo'rquvning bo'lishi ba'zi holatlarda ijobiy hodisa sifatida baholanadi. Chunki qo'rquv shaxsni muayyan xavf (qopag'on itni ko'rganda xavfsizlik choralari ni ko'rish)dan ogohlantiradi va xavfsizlik choralari ni ko'rishga undaydi. Eng muhimi, salbiy hissiyotlarga egalikning muayyan vaziyatlardagi ahamiyati yoki oqibatlarini to'g'ri anglash hamda ularning oqilona boshqarishdir.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Turli o'yinlardan foydalanish, ular tomonidan ijodiy faoliyatning yo'lga qo'yilishiga erishish boshlang'ich sinf o'quvchilarining hissiyotini tarbiyalashning samarali yo'llari hisoblanadi. Shu bilan birga o'qituvchi va ota-onalar o'quvchini hissiy tarbiyalashda ularning individual, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olishlari, birga hamkorlik qilishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, "O'qish" fani boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiylashtirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu fan orqali o'quvchilar ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlar hamda ularni samarali yo'lga qo'yish usullari haqida zarur bilimlarga ega bo'ladilar. Shuningdek, milliy qadriyatlar va umuminsoniy axloqiy me'yorlar bilan tanishish orqali ularda jamiyatda to'g'ri va faol ishtirok etish ko'nikma hamda malakalari shakllanadi. Natijada, "O'qish" fani o'quvchilarning ijtimoiy jihatdan barkamol shaxs bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abidova D. Ijtimoiy faollik tushunchasining mohiyati va falsafiy tahlili // International Educators Conference Hosted online from Toronto (7th may, 2025). – Toronto (Canada): 2025. – p. 38.
2. Дарвиш О.Б. Психологическая устойчивость как базовая характеристика личности // Сибирский педагогический журнал. – Новосибирск: 2008. - № 7. – С. 362.
3. Ijtimoiy faollik // <https://oilacadriyat.uz/qadriyat/ijtimoiy-faollik>.
4. Ismailov B.R., Latipova N.M. Yoshlarda ijtimoiy faollik holati va amalga oshirish shakllari // Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences j. – Nurafshon: 2021. - № 2. 1-том. – 255-б.
5. Жожикашвили Н.А., Малых А.С., Девятерикова А.А. Психическая устойчивость // Ж. Теоретическая и экспериментальная психология. – М.: 2021. - № 4. Том 14. – С. 49.
6. Психическая устойчивость: что это и как ее развить // <https://4brain.ru/blog/развить-психическую-устойчивость>.
7. Tursunova N. Yoshlarning ijtimoiy faolligi: tushuncha va fazilatlar // Ijtimoiy fikr j. – T.: 2004. 3-son, 149-150-b.
8. Xojiboyev A. Shaxs va jamiyat: o'zaro ta'sir falsafasi. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2016. – 112-255-b.
9. Эмоциональная стабильность // <https://psychologos.ru/articles/view/emocionalnaya-stabilnost>.
10. Ҳиссиёт // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-h/hissiyot-uz>.